

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot fakulteti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasida assistenti Ulmasova Oygul tomonidan “Iqtisodiyot nazariyasi 2” fanidan “Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi” mavzusi bo‘yicha tayyorlagan ochiq amaliy darsi ishlanmasiga

T A Q R I Z

Xozirgi kunda Mazkur mavzu bugungi globallashtirish jarayonlari jadallashtirgan bir davrda alohida dolzarblilik kasb etadi. Xalqaro iqtisodiy integratsiya — bu davlatlar o‘rtasida savdo, investitsiya, texnologiya va mehnat resurslari almashinuvi orqali o‘zaro yaqinlashuv jarayonidir. Ushbu jarayon nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvni o‘zining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgiladi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda olib borilayotgan ochiq va pragmatik tashqi siyosat natijasida mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzi sezilarli darajada oshdi. O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayonlari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish siyosati, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi bu borada muhim qadamlar hisoblanadi. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning O‘zbekiston uchun asosiy afzalliklaridan biri — bu yangi bozorlar ochilishi va eksport salohiyatining oshirishidir. Shu bilan birga, ilg‘or texnologiyalarni jalb etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyati yuzaga keladi. Ushbu ochiq amaliy darsining mavzusi “Iqtisodiyot nazariyasi 2” fanining fan dasturi va ishchi o‘quv dasturi (sillabusi)ga to‘liq mos keladi, amaliy dars ishlanmasi yangi interfaol pedagogik texnologiyalar bo‘yicha taqdimot qilingan holda uslubiy tomondan to‘g‘ri tanlangan. Ishlanmada ochiq amaliy darsining rejasi, maqsad va vazifalari, o‘qitish pedagogik texnologiyalari berilgan bo‘lib, unda pedagogik faoliyat va o‘quv faoliyat natijalari to‘liq ochib berilgan.

“Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi” amaliy dars mavzusi bo‘yicha ta‘lim texnologiyasi, Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi uning mazmuni, ushbu mavzuni o‘rganishning nazariy va amaliy ahamiyati, mavzu yuzasidan qiziqarli savol javoblar, Swot tahlili, Sinkveyn usuli, Venn diagrammasi, B.B.B.usuli, “T”sxemasi hamda testlar tuzilgan.

Umuman olganda, Oygul Ulmasova tomonidan tayyorlangan Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi mavzusidagi amaliy dars ishlanmasi “Ochiq ma‘ruzalarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom” talablariga mos keladi va uni o‘quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

**Iqtisodiyot va menejment
kafedrasida dotsenti, i.f.n.**

ning imzosini
I.Salamov
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Iqtisodiyot bo‘limi boshlig‘i

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot fakulteti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasida assistenti Ulmasova Oygul tomonidan “Iqtisodiyot nazariyasi 2” fanidan “Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi” mavzusi bo‘yicha tayyorlagan ochiq amaliy darsi ishlanmasiga

T A Q R I Z

Ushbu mavzu hozirgi davrning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi, chunki globallashtirish sharoitida hech bir davlat yakka holda barqaror rivojlana olmaydi. Xalqaro iqtisodiy integratsiya mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy chegaralarni qisqartirish va umumiy bozorlar shakllanishini anglatadi. Bu jarayon jahon xo‘jaligining ajralmas qismi bo‘lib, davlatlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston ham mustaqillikdan keyin bosqichma-bosqich jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashib bormoqda. Ayniqsa, oxirgi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, tashqi savdoni liberallashtirish, investorlar uchun qulay muhit yaratish kabi chora-tadbirlar mamlakatning xalqaro maydondagi o‘rni mustahkamladi. Shuningdek, O‘zbekistonning xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorligi, transport-kommunikatsiya loyihalarida faol ishtiroki ham integratsiya jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ushbu ochiq amaliy darsining mavzusi “Iqtisodiyot nazariyasi 2” fanining fan dasturi va ishchi o‘quv dasturi (sillabusi)ga to‘liq mos keladi, amaliy dars ishlanmasi yangi interfaol pedagogik texnologiyalar bo‘yicha taqdimot qilingan holda uslubiy tomondan to‘g‘ri tanlangan. Ishlanmada ochiq amaliy darsining rejasi, maqsad va vazifalari, o‘qitish pedagogik texnologiyalari berilgan bo‘lib, unda pedagogik faoliyat va o‘quv faoliyat natijalari to‘liq ochib berilgan. “Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi” amaliy dars mavzusi bo‘yicha ta‘lim texnologiyasi, Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi uning mazmuni, ushbu mavzuni o‘rganishning nazariy va amaliy ahamiyati, mavzu yuzasidan qiziqarli savol javoblar, Swot tahlili, Sinkveyn usuli, Venn diagrammasi, B.B.B.usuli, “T” sxemasi hamda testlar tuzilgan.

Umuman olganda, Oygul Ulmasova tomonidan tayyorlangan Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi mavzusidagi amaliy dars ishlanmasi “Ochiq ma‘ruzalarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom” talablariga mos keladi va uni o‘quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

**SamISI, “Real iqtisodiyot”
kafedrasida PhD, dotsent**




B.O. Dusmatov
IMZONI TASDIQLAYMAN
SamISI
KODIMLAR BO'LIMI BOSHLAG'I